МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJIRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамоллова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	



MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA'MINLASHDA G'AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI

Tangriyeva Farida Abdulkarimovna

Magistr

Toshkent shahar G'aznachilik xizmati boshqarmasi

Yangiyo't tumani G'aznachilik xizmati bo'limi

Yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish bo'yicha bosh mutaxassis

ftangriyeva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy budjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimining institutsional roli va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda g'aznachilik tizimining moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash hamda mahalliy moliya boshqaruvida shaffoflikni oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tahlil natijalari g'aznachilik tizimini takomillashtirish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, g'aznachilik tizimi, budjet ijrosi, moliyaviy, intizom, shaffoflik, hududiy moliya.

Abstract. This article analyzes the institutional role and effectiveness of the treasury system in ensuring the execution of local budgets. The study examines the importance of the treasury in strengthening financial discipline, ensuring the targeted use of budgetary funds, and increasing transparency in local public finance management. The findings indicate that improving the treasury system is a key factor in enhancing the sustainability of regional socio-economic development.

Keywords: local budget, treasury system, budget execution, financial, discipline, transparency, regional finance.

Аннотация. В статье анализируется институциональная роль и эффективность казначейской системы в обеспечении исполнения местных бюджетов. Рассматривается значение казначейства в укреплении финансовой дисциплины, обеспечении целевого использования бюджетных средств и повышении прозрачности управления местными финансами. Результаты исследования подтверждают, что развитие казначейской системы является важным условием устойчивого социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: местный бюджет, казначейская система, исполнение бюджета, финансовый, дисциплина, прозрачность, региональные финансы.

KIRISH

Bugungi kunda mahalliy budjetlar ijrosining samarali tashkil etilishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlar orqali aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va qamrovini kengaytirish bilan bog'liq asosiy vazifalar moliyalashtiriladi. Shu bois mahalliy budjet mablag'larining o'z vaqtida, maqsadli va samarali ijro etilishi moliya boshqaruvi tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mahalliy budjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimi markaziy institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. G'aznachilik xizmati budjet mablag'larining harakatini markazlashgan tartibda boshqarish, to'lovlar ustidan operativ nazoratni amalga oshirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash orqali budjet jarayonining shaffofligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim mahalliy budjet mablag'laridan foydalanishda takroriy xarajatlar, maqsadsiz to'lovlar va moliyaviy xatarlarni kamaytirish imkonini beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, hududiy moliyaviy mustaqillikning bosqichma-bosqich kengayib borayotgani, ikkinchi tomondan esa mahalliy budjetlar ijrosida samaradorlik va natijadorlikka qo'yilayotgan talablarning ortib borishi bilan izohlanadi. Hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va resurslardan oqilona foydalanish sharoitida



g'aznachilik tizimining institutsional roli yanada kuchayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, g'aznachilik xizmatining mahalliy budjet ijrosidagi o'rni va samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini asoslab berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi mahalliy budjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimining institutsional rolini tahlil qilish, uning samaradorligini baholash hamda hududiy moliya boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat va mahalliy budjetlarni boshqarish masalalari moliya nazariyasida fundamental yo'nalishlardan biri bo'lib, ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar g'aznachilik tizimini budjet ijrosining asosiy institutsional mexanizmi sifatida talqin etadi. Davlat moliyasining nazariy asoslari va budjet tizimining funksional tuzilmasi Richard A. Musgrave hamda Peggy B. Musgrave tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalarda chuqur yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida budjet ijrosi davlatning qayta taqsimlash, barqarorlashtirish va resurslarni samarali joylashtirish funksiyalarini amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv mahalliy budjet ijrosida institutsional boshqaruvning ahamiyatini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Mahalliy va munitsipal moliyani boshqarish masalalari postsovet ilmiy maktabida ham keng o'rganilgan. Xususan, V. M. Rodionova o'z asarlarida davlat va munitsipal moliya tizimini ko'p darajali moliyaviy munosabatlar majmui sifatida tahlil qilib, budjet ijrosida g'aznachilik mexanizmining markaziy o'rnini alohida ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, g'aznachilik orqali markazlashgan moliyaviy nazorat mahalliy darajada moliyaviy intizomni ta'minlash va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishning asosiy sharti hisoblanadi.

Davlat moliyasi va budjet ijrosining tashkiliy jihatlari L. A. Drobozina tomonidan ham tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. Uning tadqiqotlarida budjet ijrosi jarayoni daromadlarni safarbar etish, xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat mexanizmlarining uzviy bog'liqligi orqali izohlanadi. Muallif g'aznachilik tizimini ushbu jarayonlarning uzluksiz ishlashini ta'minlovchi muhim institut sifatida baholaydi, bu esa mahalliy budjet ijrosida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiy sharoitida davlat budjeti va budjet siyosati masalalari R. A. Alimuhamedov hamda A. X. Shoazimov asarlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida mahalliy budjetlar ijrosining samaradorligi hududiy rivojlanishning moliyaviy asosi sifatida talqin qilinadi. Mualliflar g'aznachilik tizimini budjet mablag'lari harakati ustidan markazlashgan boshqaruvni ta'minlovchi va hududiy moliya boshqaruvida shaffoflikni oshiruvchi asosiy mexanizm sifatida baholaydilar.

Shuningdek, Sh. Sh. Shodmonov tadqiqotlarida budjet siyosatini amalga oshirishda g'aznachilik tizimining nazorat va muvofiqlashtirish funksiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Muallif mahalliy budjet ijrosida g'aznachilik orqali xarajat majburiyatlarini oldindan nazorat qilish moliyaviy intizomni mustahkamlash va budjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy hujjatlar ham mazkur mavzuni chuqur ochib beradi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki materiallarida g'aznachilik tizimi davlat moliyasini boshqarishda asosiy institutsional infratuzilma sifatida qaraladi. Ushbu manbalarda budjet ijrosining samaradorligi g'aznachilik nazorati, axborot tizimlari va likvidlikni boshqarish mexanizmlari bilan bevosita bog'lanadi. OECD tadqiqotlarida esa g'aznachilik tizimining rivojlangan shakllari mahalliy va markaziy darajada moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili g'aznachilik tizimi mahalliy budjet ijrosida muhim institutsional mexanizm ekanini, u moliyaviy intizom, shaffoflik va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy budjetlar ijrosini yanada takomillashtirish uchun g'aznachilik tizimining nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganish zarurligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat g'aznachiligi hamda rasmiy statistik manbalar ma'lumotlari asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, dinamik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy tahlil hamda umumlashtirish orqali g'aznachilik tizimining mahalliy budjet ijrosidagi samaradorligini baholashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjet ijrosi davlat moliya tizimining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy asosini shakllantiradi. Mahalliy budjetlar orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, ijtimoiy himoya va infratuzilma sohalariga yo'naltiriladigan mablag'larning hajmi va samaradorligi aholi



turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mahalliy budget mablag'larining o'z vaqtida, to'liq va maqsadli ijro etilishi moliya boshqaruvi tizimida ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda g'aznachilik tizimi asosiy institutsional mexanizm sifatida alohida o'rin egallaydi.

G'aznachilik tizimining institutsional roli, avvalo, budget mablag'lari harakatini markazlashgan tartibda boshqarish orqali namoyon bo'ladi. Mahalliy budget ijrosida g'aznachilik organlari daromadlar tushumini hisobga olish, xarajatlar bo'yicha majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish, to'lovlarni amalga oshirish va moliyaviy operatsiyalar ustidan joriy nazoratni ta'minlaydi. Ushbu markazlashuv budget mablag'larining nazoratsiz sarflanishi, moliyaviy intizom buzilishi va likvidlik bilan bog'liq muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada mahalliy budget ijrosi jarayonida resurslardan foydalanishning aniqligi va ishonchligi oshadi.

Mahalliy budget ijrosida g'aznachilik tizimining samaradorligi, birinchi navbatda, moliyaviy intizomni mustahkamlash orqali ifodalanadi. G'aznachilik mexanizmi xarajatlar bo'yicha majburiyatlarni oldindan nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa budget tashkilotlarining tasdiqlangan smetadan tashqari majburiyatlar qabul qilishini cheklaydi va ortiqcha qarzdorlikning oldini oladi. Ayniqsa, mahalliy darajada moliyaviy rejalashtirish sifati yetarli bo'lmagan sharoitlarda g'aznachilik nazorati budget ijrosining barqarorligini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi.

G'aznachilik tizimi mahalliy budget ijrosining shaffofligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Barcha moliyaviy operatsiyalarning yagona axborot tizimi orqali amalga oshirilishi budget mablag'lari harakatining ochiqqligini ta'minlaydi. Bu holat budget jarayonida korrupsion xavflarni kamaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va davlat moliyasiga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Shaffoflikning oshishi, o'z navbatida, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mas'uliyatini kuchaytiradi va budget mablag'laridan foydalanishda natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuvni shakllantiradi (1-jadval).

1-jadval. Mahalliy budget ijrosida g'aznachilik tizimining asosiy funksiyalari va ularning samaradorlikka ta'siri¹

G'aznachilik funksiyasi	Amalga oshirish mexanizmi	Mahalliy budget ijrosiga ta'siri
Daromadlar hisobini yuritish	Budget tushumlarini yagona g'azna hisobida jamlash	Daromadlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishi
Xarajat majburiyatlarini ro'yxatga olish	Smetalar va shartnomalar asosida oldindan nazorat	Maqsadsiz va rejasiz xarajatlarning oldini olish
To'lovlarni amalga oshirish	G'aznachilik orqali markazlashgan to'lovlar	To'lovlar uzluksizligi va likvidlik barqarorligi
Joriy moliyaviy nazorat	To'lovlar va majburiyatlar monitoringi	Moliyaviy intizomning mustahkamlanishi
Axborot va monitoring	Elektron axborot tizimlari orqali real vaqt kuzatuv	Shaffoflik va hisobdorlikning oshishi

Quyidagi jadval mahalliy budget ijrosida g'aznachilik tizimining institutsional rolini tizimli ravishda aks ettiradi va uning samaradorlikka ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Jadvalda keltirilgan g'aznachilik funksiyalari budget ijrosi jarayonining barcha asosiy bosqichlarini qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, daromadlar hisobini yuritish funksiyasi mahalliy budget tushumlarining to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishi orqali budget barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa hududiy xarajatlarning uzluksiz moliyalashtirilishiga sharoit yaratadi.

Xarajat majburiyatlarini ro'yxatga olish mexanizmi g'aznachilik tizimining muhim nazorat instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizm orqali rejalashtirilmagan va maqsadsiz xarajatlarning oldi olinib, moliyaviy intizom mustahkamlanadi. To'lovlarni markazlashgan holda amalga oshirish esa mahalliy budgetlarda likvidlikni samarali boshqarish imkonini beradi hamda to'lovlar bo'yicha kechikishlar xavfini kamaytiradi.

Jadvalda ko'rsatilgan joriy moliyaviy nazorat va axborot-monitoring funksiyalari g'aznachilik tizimining shaffoflikni oshirishdagi rolini ochib beradi. Elektron axborot tizimlari orqali real vaqt rejimida monitoring olib borilishi budget mablag'lari harakati ustidan doimiy nazoratni ta'minlaydi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Umuman olganda, jadval g'aznachilik tizimi mahalliy budget ijrosining samaradorligini oshiruvchi muhim institutsional mexanizm ekanini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Mahalliy budget ijrosida g'aznachilik tizimining samaradorligi likvidlikni boshqarish bilan ham chambarchas bog'liq. G'aznachilik orqali budget mablag'larining vaqtinchalik bo'sh qoldiqlari hisobga olinadi va pul oqimlari muvofiqlashtiriladi. Bu esa mahalliy budgetlarda kassa uzilishlarining oldini olish, ijtimoiy xarajatlar bo'yicha to'lovlarning kechikmasdan amalga oshirilishini ta'minlash imkonini beradi. Likvidlikni markazlashgan boshqarish mahalliy darajada moliyaviy risklarni kamaytirib, budget ijrosining barqarorligini mustahkamlaydi.

1 Muallif ishlanmasi

Hududiy moliyaviy mustaqillik kengayib borayotgan sharoitda g'aznachilik tizimining institutsional ahamiyati yanada ortmoqda. Mahalliy budjetlarning daromad manbalari diversifikatsiyalanib, ularning xarajat vakolatlari kengayayotgan bir paytda moliyaviy boshqaruv sifatiga bo'lgan talab kuchaymoqda. G'aznachilik tizimi ushbu sharoitda mahalliy budjetlar ijrosini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi asosiy institut sifatida faoliyat yuritadi. U hududiy tashabbuslarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan birga, budjet intizomini saqlash o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

G'aznachilik tizimining samaradorligi raqamlashtirish jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi budjet ijrosini tezkor, aniq va ishonchli amalga oshirish imkonini bermoqda. Elektron to'lovlar, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari va real vaqt rejimida monitoring olib borish mahalliy budjet ijrosida inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish g'aznachilik tizimining tahliliy imkoniyatlarini kengaytirib, qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni kuchaytiradi.

Mahalliy budjet ijrosida g'aznachilik tizimining samaradorligini baholashda uning iqtisodiy natijalari bilan bir qatorda institutsional ta'siri ham hisobga olinishi lozim. G'aznachilik orqali budjet jarayonining standartlashtirilishi, moliyaviy protseduralarning yagona qoidalarga asoslanishi va boshqaruv intizomining mustahkamlanishi uzoq muddatli ijobiy samara beradi. Bu holat mahalliy moliya boshqaruvida barqaror institutlar shakllanishiga va hududlar o'rtasida budjet ijrosi sifatining nisbatan tenglashishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, amaliyotda g'aznachilik tizimi faoliyatida ayrim muammolar ham kuzatiladi. Mahalliy darajada kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, axborot tizimlaridan foydalanish ko'nikmalarining pastligi va normativ-huquqiy bazadagi ayrim nomuvofiqliklar g'aznachilik xizmatining samaradorligini cheklashi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun institutsional islohotlar, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va g'aznachilik faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish zarur.

Umuman olganda, mahalliy budjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimi muhim institutsional mexanizm sifatida moliyaviy intizomni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. G'aznachilik tizimining samarali faoliyati hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mahalliy budjet boshqaruvin takomillashtirish jarayonida g'aznachilik tizimining institutsional imkoniyatlarini yanada rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar mahalliy budjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimi muhim institutsional mexanizm sifatida moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash hamda hududiy moliya boshqaruvida shaffoflikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. G'aznachilik tizimi orqali budjet jarayonining markazlashgan boshqaruvi mahalliy darajada moliyaviy xatlarni kamaytirish, to'lovlar uzluksizligini ta'minlash va budjet ijrosining barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, hududiy moliyaviy mustaqillik kengayib borayotgan sharoitda g'aznachilik xizmatining institutsional ahamiyati yanada ortib borayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimining samaradorligini yanada oshirish mahalliy budjet boshqaruvin takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda g'aznachilik faoliyatini to'liq raqamlashtirish, axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish va real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalliy darajada g'aznachilik xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish, ularning zamonaviy moliyaviy boshqaruv va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish budjet ijrosi sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, g'aznachilik tizimining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish, budjet jarayonida vakolatlar va mas'uliyatni aniq belgilash hamda mahalliy hokimiyat organlari bilan institutsional hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu chora-tadbirlar budjet mablag'laridan foydalanishda natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuvni shakllantirish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va davlat moliyasiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash imkonini beradi. Umuman olganda, g'aznachilik tizimini izchil rivojlantirish mahalliy budjet ijrosining samaradorligini oshirish orqali hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.A. Alimuhamedov. Davlat budjeti va budjet tizimi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2018.-312 b.
2. A.X. Shoazimov. Davlat moliyasi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot va moliya, 2020.-348 b.
3. Sh.Sh. Shodmonov. Davlat budjeti va budjet siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019.-256 b.
4. В.М. Родионова. Государственные и муниципальные финансы. Учебник. – М.: Юрайт, 2021.-512 с.
5. Л.А. Дробозина. Финансы. Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2020.-463 с.
6. Р.А. Масгрейв, П.Б. Масгрейв. Государственные финансы: теория и практика. – М.: Дело, 2009.-627 с.



7. Allen R., Hemming R., Potter B. The International Handbook of Public Financial Management. – London: Palgrave Macmillan, 2013.-1024 p.
8. World Bank. Public Financial Management Reform in Developing Countries. – Washington, DC: World Bank Publications, 2018.-356 p.
9. International Monetary Fund. Government Finance Statistics Manual. – Washington, DC: IMF, 2014.-468 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat budjeti ijrosi to'g'risida yillik hisobot. – Toshkent, 2022.-180 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat g'aznachilik tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.-64 b.
12. OECD. Budgeting and Public Expenditures in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 2019.-290 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100